

## SPORT IJTIMOIIY-MADANIY HODISA SIFATIDA

**N.N. Nazarov**

O'zDJTSU dotsenti, f.f.n.

### ABSTRACT

The article reveals the socio-cultural aspects of sports, its identity, the relationship of physical culture and philosophy, and also explores the scientific and theoretical issues of the philosophy of sports.

Much attention is paid to the harmony of physical and spiritual education in the formation of a perfect personality.

**Keywords:** Sociocultural phenomenon, sport, philosophy of sport, physical culture, physical education, sports activity and performance, functional characteristics of sports, health.

### АННОТАЦИЯ

В статье раскрываются социокультурные аспекты спорта, его самобытность, взаимосвязь физической культуры и философии, а также исследуются научно-теоретические вопросы философии спорта.


Большое внимание уделяется гармонии физического и духовного воспитания в формировании совершенной личности.

**Ключевые слова:** Социокультурный феномен, спорт, философия спорта, физическая культура, физическое воспитание, спортивная деятельность и представление, функциональные характеристики спорта, здоровье.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy-madaniy hodisa, sport, sport falsafasi, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport faoliyati va g'oyasi, sportning funktsional xususiyatlari, sog'liq.

Mamlakatimizda sportga davlat siyosati darajasida a'lohida e'tibor berilayotgani sportning ijtimoiy mohiyat-mazmuni nihoyatda beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Sportni ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u asosan jamiyatga insonning jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi, shu bilan birga, uning ma'naviy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur xususiyati jismoniy tarbiyaning mushtarak belgisidir. Inson ijtimoiy ongining rivoj topganligi jismoniy madaniyatni vujudga keltirishidagi sub'ektiv omili deb hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportga doir zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar har bir muayyan tarixiy davr tamaddunida, sportning inson hayotiy faoliyatida tutgan o'rni

va ahamiyatini o'rganish orqali shakllanib bormoqda. Ma'lumki, sport jismoniy madaniyatning o'ta muhim tarkibiy qismi sifatida bir qator funtsional xususiyatlar bilan farqlanib, o'ziga xos xususiyatlarni mujassam etgani sababli, nafaqat shu yo'nalish mutaxassislari o'rtasida balki, barcha soha olimlari e'tiborini jalb etib kelmoqda. Sportning funktsiyalari va ularning xususiyatlari qo'yidagi jadvalda o'z aksini topgan.



Sport o'zining barcha turlari ya'ni, yuksak natijalar sporti bo'ladimi, ommaviy sportmi, professional sportmi, olimpiya yoki paraolimpiya sporti bo'ladimi, yoki sportning boshqa jabhalarimi, baribir falsafa bilan, aniqroq aytganda, falsafiy antropologiya bilan bevosita bog'liq.

Falsafa sport ko'zglasida o'zining jonli ifodasini topadi. Sportda bashariyat rivojlanishi madaniy taraqqiyotining barcha yutuqlari hamda kamchiliklari yorqin namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda, sportning tarixiy rivojlanib borishi jarayonida takror-takror isbotlangani kabi, falsafa orqali sportning ruhiy-ma'naviy zaruriyati, mohiyatan maqsadga muvofiq ekanligi o'z tasdig'ini topadi. Sport inson jismining kamol topishi orqali azaliy falsafiy muammo bo'lgan ruh va jism munosabatiga, ularning birligi va qarama-qarshiligiga oid muammoni hal etib beradi. Ta'kidlash joizki, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar o'z tadqiqotlari orqali sportning mohiyatini ochib berish jarayonida shaxsning jismoniy va ruhiy jihatdan tarbiyalashni uyg'unlashtirish masalasini chetlab o'ta olmaydilar. Sport falsafasi ham sport tarixi va sport

sotsiologiyasi kabi 1960 yillarda Shimoliy Amerika universitetlari va kollejlari uchun jo'shqin iqtisodiy o'sish, siyosiy hayojon va qo'zg'alishlar, intellektual tajribalar va rivojlanishlar avj olgan bir davrda vujudga keldi. Ilmiy jonlanish va siyosiy izlanishlarning muhim sabablaridan biri, eski akademik tartiblarning talabalar tomonidan to'xtovsiz tanqid va tayziqlarga uchrashidir. Talabalar har bir eskilik sanalgan tartiblarga shubha bilan yondashib akademik tajribaning o'zgarishi va yangilanishiga intilganlar.

Sport falsafasi mohiyat-mazmunini tatbiq qilishda uni jamiyatdagi barcha ijtimoiy hodisalar bilan uyg'unligi nazaridan olib qarash muhim ahamiyatga egadir. Chunki jamiyatdagi biror ijtimoiy hodisa yo'qki, u bir-biri bilan bevosita yoki bilvosita bog'lanmagan bo'lsin. Bu bevosita sport falsafasiga tegishlidir. Shuning uchun sport falsafasi aynan shu davrda dunyoga kelgan. Biroq sport falsafasi tarixida ikki voqea hal qiluvchi muhim ahamiyat kasb etdi. Birinchisi, eski va shakllangan jismoniy tarbiya sohasida sport izlanishlarning yuzaga kelishi bo'ldi. Agar an'anaviy jismoniy tarbiya tibbiy va pedagogik izlanishlarga asoslangan bo'lsa, yangi dunyoga kelgan sport izlanishlari sohasi jadal intellektual maqsadlarni, an'anaviy tibbiy va pedagogik izlanishlarni falsafiy tarixiy va ijtimoiy izlanishlar to'ldiradi. Yuqoridagilar sportning madaniy va tarixiy sohalarini o'rganish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Bu borada Eleonor Metening "Xarakat va uning ahamiyati" (1968), Govard Slasherning "Inson sport va mavjudlik"(1967) asarlarining nashr qilinishi sport falsafasining yangi izlanishlar sohasida o'z o'rniga ega bo'lishiga zamin yaratdi. Keyinchalik ayon bo'lishicha sport falsafasining paydo bo'lishi uchun bir qator to'siqlarni yengib o'tishga to'g'ri kelgan. Ikkinchi voqea kechikib bo'lsa ham, sportga falsafiy jihatdan yondashuv bo'ldi. Falsafa uzoq vaqt sportdan chetda bo'lgan. Garchi falsafada hayot tarziga an'anaviy qarash hukm surgan bo'lsa ham, sport bir qator xalqlar madaniyatiga qadimgi grek madaniyati, zamonaviy amerika madaniyatlariga o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lsa ham jiddiy falsafiy e'tiborga ega bo'lmagan. Albatta, buning aksi ham bo'lgan. Masalan, Aristotel, Platon va boshqa bir qancha faylasuflar o'yin va sport haqida goho ma'qullab, goho havas bilan yozishgan. Zamonaviy falsafa ijodkorlari Nitsche va Xaydeggerlar esa o'yindan o'zlarining muhim dunyoqarashlarini aniqlovchi o'xshatish sifatida foydalanishgan. Sartr va Vitgenshteylar inson hayot tarzini ifodalovchi qarashlarini ishlab chiqishda, o'yin va sport tushunchalariga murojat etishgan. Biroq ko'plab falsafa namoyondalari sportni jiddiy qabul qilishmagan ularning fikricha u vaqt sarf qilish uchun arzimmas narsa. Sportga bunday e'tiborsiz munosabat, tanaga ta'sir etuvchi vosita sifatida nafaqat falsafa o'tmishi, uning din bilan bog'liqligi va uning doimiy savollarga munosabati bilan bog'liqligidir. Biroq qiyinchiliklarga qaramay vaziyat o'zgara boshladi, faylasuflar sport o'yinlariga jiddiyroq munosabatda bo'la boshladilar. Bu o'zgarishlarning sust kechikkan harakterini hisobga olib, yevropa

falsafasini yoqlovchi jurnallarning jumladan *Philosophy Today u Man and Worldning* mavqei oshib borishining hayron qoladigan joyi yo‘q. Bunda yirik faylasuf pragmatik harakatlar bilan bog‘langan “Sport: falsafiy izlanishlar” kitobini yozgan Pol Veysning hissasi kattadir. Pol Veysning ushbu kitobini falsafa olamida shovqin suron va tortishuv bilan kutib olishdi. Sport mavzusi xalqaro obro‘ga ega Pol Veysning talanti va vaqtini band qilishi uning hamkasblari orasida sezilmay qolmadi, hattoki, analitik lagerga mansub faylasuflar ham bunga befarq qolmadilar. Biroq 1970 yillarning boshlariga kelibgina sport falsafasi mustahkam oyoqqa tura oldi, bunda 1972 yil hal qiluvchi o‘rin tutdi. Shu yili sport izlanishlari va falsafa sohasidagi mutaxassislar sportni o‘rganish bo‘yicha falsafiy jamiyatni tuzish uchun bir yerga yig‘ildilar. 1974 yildan jamiyat “Sport falsafasi jurnali”ni nashr eta boshladi va hozirgacha sportning falsafiy o‘rganish bo‘yicha ilmiy merosxo‘r bo‘lib kelmoqda. Sportning intellektual rivojlanishini yoritish uchun tarixiy sharhlash qanchalik foydali bo‘lmasin, ularni band etgan va ularni boshqalardan farqlovchi muammolarga oydinlik kirita olmaydi. Shuning uchun sport falsafasini to‘lqinlantirayotgan muammo va savollarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojat qilish kerak. Buning ma‘nosi shuki, sport falsafasi nimaligini tushuntirish, ushbu asosiy falsafa savollariga e‘tiborni jalb qilish vositasi bo‘lishi mumkin, keyingina ularni sport kabi madaniy amaliyotlar natijasi deb qarash mumkin. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport sohasining mohiyati, uning nazariy-amaliy muammolari va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini o‘rganish o‘tmish an‘analari asosida shakllanib kelayotgan yangi fanlararo bilim tarmog‘i bo‘lgan “Sport falsafasi” zamon taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib bormoqda.

Sport falsafasi fanlararo bilim tarmog‘i bo‘lib, sportning mohiyatini va ahamiyatini ijtimoiy-madaniy nuqtai-nazardan o‘rganadi. Jismoniy tarbiya inson jismining mukammal darajada shakllantirish yo‘lida ta’sirchan omil sifatida tadqiq etiladi. Keyingi yillarda mustaqil ilmiy sohalar sifatida shakllangan “sport sotsiologiyasi”, “sport pedagogikasi”, “sport psixologiyasi” kabi fanlar orqali sportning ko‘p qirrali ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini ochib beruvchi talaygina empirik va nazariy materiallar to‘plandi. Bu fanlar insonning sport faoliyatiga bo‘lgan mayl va intilishlarini hamda shaxsiy xususiyatlarini ochib beradi. Bularning barchasi sportni ijtimoiy voqelik nuqtai- nazaridan zamonaviy falsafiy asosda talqin etish zaruratini keltirib chiqaradi. Falsafa va jismoniy tarbiya fanlari o‘rtasida ilmiy va amaliy jihatdan uyg‘unlashish uchun qanday imkoniyatlar mavjud degan savollar yuzaga keladi.

Bu savollarga javob qidirar ekanmiz, insoniyat to‘plagan ilmning borliq va uning rivojlanishi to‘g‘risidagi bilimlari hamon nihoyatda nomukammal ekanligini anglaymiz. Binobarin, “sport falsafasi” degan ikki fan oralig‘idagi bog‘lovchilik vazifasini o‘tovchi vositalar va ular bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida chuqur va

aniq ifodalangan ma'lumot berish oson emas. Bu o'rinda jismoniy tarbiya va sportning taraqqiy topishidan manfaatdor uni targ'ib va tashviq etish tarafdori bo'lgan olimlar bilan asrlar mobaynida shakllangan sport to'g'risidagi tasavvurlarni yangilash haqidagi ilmiy bahslashuvlar o'z samarasini beradi. Jismoniy tarbiya taraqqiyotini falsafiy talqin etish zarurati uzoq tarixga ega bo'lsada, sport falsafasi nisbatan yangi soha bo'lib, u keng qamrovli intellektual borliqda ilmiy tadqiqotlarning eng kam yoritilgan sohalardan biri hisoblanadi.

Insonning eng muhim faoliyat turlaridan biri bo'lmish sport hamisha falsafiy mushohadaning diqqat markazida bo'lishi zarur. Shunga qaramay, falsafa va jismoniy tarbiya to'g'risidagi fanlar uyg'onish davridan keyin bir-biridan xoli, mutlaqo mustaqil yo'nalishlar sifatida rivojlandi. Bu holatni g'arbiy yevropaga xos bo'lgan an'anaviy mushohadadan voz kechgan zamonaviy inglizcha-amerikacha postmodern falsafasi vakillari yanada chuqurlashtirib yuborishdi. Ana shu nuqtai-nazardan faylasuflar uchun inson vujudiga nisbatan munosabat qat'iy ravishda odamning mohiyatini o'rganishga qaratildi. Insonning mohiyatini o'rganish va anglash hissiyotga berilish deb tushunildi va ularning fikriga ko'ra bu sohani aniq, qat'iy ilmiy belgilangan uslublarda tadqiq etish zarur deb ko'rsatildi. Falsafiy mushohadaning bu uslubini keyingi avlod allomalari tomonidan meros qilib olinishi natijasida jismoniy tarbiya va sport kabi sohalarni oyoq osti qilishgacha borib yetildi. Bu esa o'zaro anglashilmovchiliklarni keltirib chiqardi.

Sport voqeligiga va yangiliklariga to'la bo'lgan XX asrda jahon afkor ommasining jismoniy tarbiya va sportga nisbatan diqqat-e'tiborining o'zgacha tus olishi faylasuflarning qarashlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Sportni falsafiy talqin etadigan bo'lsak, inson o'z-o'zini tarbiyalashi uchun yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Sportdagi ko'rsatkichlarning o'sish me'yoriga qarab sportchi nafaqat jismoniy, balki ruhiy, aqliy, ahloqiy, ma'naviy va vatanparvarlik nuqtai-nazaridan tarbiya jarayoniga kirib boradi. Sport tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda o'zining betakror sifatlariga ega. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "barcha sohalarda bo'lgani kabi jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e'tibor qaratib, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifadir"<sup>1</sup> deya ta'kidlagan edi.

Sport iroda sifatlarini to'la namoyon etishni talab etadigan mardonovor, hatto, beshafqat faoliyat turidir. Prezidentimiz sportga baho berar ekan, uni shunday talqin qildi: Sport o'zbek halqiga qadimiy an'ana O'zbekistonimizda yuzlab xalq milliy sport o'yinlari bilan bir qatorda zamonaviy sport ham rivoj topayapti.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 25yanvar Xalq so'zi.



Sport millatlarni birlashtiradigan, xalqlarni jipslashtiradigan va ular o'rtasida o'zaro do'stlik, birodarlik rishtalarini bog'laydigan vositadir. Sportdagi har bir natijamillatning sog'lomligini, qudratini, buyukligini namoyon etuvchi eng yaxshi mezondir. Sportda yuqori natijalarga erishish davlatning jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishida katta o'rin tutadi. Bu natijalarning o'sishi insonning nimalarga qodirligi to'g'risidagi qarashlarini yanada kengaytirib tayyorgarlikning yangi usul va yo'llarining ochilishiga turtki beradi. Shu o'rinda rossiyalik "Теория и практика физической культуры" jurnali bosh muharriri L.I. Lubisheva ta'kidlaganidek, "yoshlarning jismoniy tarbiyaga qiziqishida vatan shon-shuxratini ko'tarishida sportning ahamiyati buyukdir. Sog'lom xalq yuqori ma'lumotli va fidokor yosh avlodga ega bo'lsa, albatta kelgusida o'zini buyuk kelajagini ta'minlaydi. Shuning uchun sportchining axloqiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan tarbiyalanishi har tomonlama ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash uchun asosiy shartlardan biridir"<sup>2</sup>

Ko'pgina olimlar sportning insonparvarlik jihatlarini chuqur tadqiq etish, uni jismoniy tarbiyaga oid yangi ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan to'ldirish, sportning inson turmushini faollashtiruvchi, uni jismoniy va ruhiy jihatdan o'z-o'zini takomillashtirish yo'lidagi intilishlarini rag'batlantiruvchi hayotiy mohiyatini ochib berish zurrati to'g'risida fikr yuritishadi. Sportning ijtimoiy mazmuni, fuqorolarning sog'lom turmush tarzi va sog'lom avlod poydevoridir. Har bir mamlakatning maqsaduintilishlari, orzu umidlaridan biri bu aholining sog'lig'ini mustahkamlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni bir-biriga nisbatan mehr-muhabbatli va albatta o'z o'rnida vatanga, halqiga, vatan mudofasiga kerakli mard, jasur yigit qizlar etib tarbiyalashdan iborat. Sport ana shunday oilalarni shakllantiradigan eng yaxshi vositalardan biridir. "Sport bilan shug'ullangan yigit-qizlar sog'lom va baquvvat, fikri tiniq bo'ladi. Kelgusida farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalaydi. Bunday oilalar ko'paysa, butun jamiyatning sog'lom muhiti yanada mustahkamlanadi".

Per de Kuberten zamonaviy olimpizm nazariyasini ishlab chiqar ekan, "Olimpizmda bir tutam quyosh nurlaridagi kabi insonni kamolotga erishtiruvchi barcha tamoyillar mujassamdir" olimpizm "hayot falsafasi" deb ta'kidlagan edi. Sportning madaniy tamaddun jarayonidagi ijtimoiy ahamiyatiga ilmiy qarashlar mutlaqo xilmaxil, hatto nihoyatda qarma-qarshi bo'lishiga qaramay, sport tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligi isbot talab etmaydigan dalil ekanligiga shak-shubha yo'q. Chindan ham, sportga oid haqiqat shuki, u ijtimoiy faoliyatning boshqa barcha shakllari bilan chambarchas bog'liqdir. Sport inson hayotini o'zgartiruvchi omil hisoblangan mehnat faoliyati bilan bog'liq, uning davolanishi va salomatligini tiklash (sport tibbiyoti) bilan uzviy aloqador, jamiyatning siyosiy-huquqiy sohasida amal qiladi, jamiyatdagi

<sup>2</sup> Лубышева Л.И. Социальная роль спорта в развитии общества и социализации личности// lid sported, 2019.c.1.

axloqiy-ma'naviy muhitga o'z ta'sirini o'tkazadi, badiiy-ijodiy va diniy munosabatlar ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ana shu ma'noda sport ijtimoiy-falsafiy tahlil maydoniga, boshqacha aytganda, antroposof muammoga aylanib qoldi. Bu muammoning mohiyati sport insonning hayotiy faoliyatiga doir g'oya, turmush tarzi va faoliyat turi sifatida umumiy va alohida xususiyatlarga ega ekanligini ochib berish zarurati bilan belgilanadi.

Inson faoliyatining o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, u maqsadga qaratilgan bo'ladi, "inson o'z borlig'ini, oddiy tilda aytganda tirikchiligini amalga oshirish uchun nimalarni istashligini dastlab ideal model sifatida, hayolidagi orzu-havaslar sifatida tasavvur etadi. Inson bu dunyoga nafaqat yashab qolishi, o'zligini anglash zarurati orqaligina mansub bo'lmasdan, balki dunyoni "o'ziga moslashtirishi" nuqtai-nazaridan ham munosabatga kirishadi. Jismoniy tarbiya va sport shubhasiz umumbashariy madaniyat qadriyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi"<sup>3</sup>, zero u insonning dunyodagi o'rnini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Sport boy umumbashariy va umummadaniy imkoniyatlarga ega bo'lib, o'zining bosh xususiyati musobaqalashuvchanlik orqali bashariy madaniyatning ichki xususiyatiga egadir, negaki, madaniyat o'zagi azaldan dialogik asosga tayanadi. Musobaqa jarayonida sportchilarning o'zaro munosabatlari orqali muayyan sportchining shaxs sifatidagi xususiy imkoniyatlari yaxlit birikuvdagi boshqa shaxslarning imkoniyatlari bilan solishtiriladi. Sport va jismoniy tarbiyada ularning boshlang'ich xilqatlaridan qaysi biri ijodiy o'zgartiruvchi xilqatmi yoki buzg'unchi kuch xilqati bosh mezon ekanligiga ko'ra, jismoniy tarbiya va sport jamiyatda o'ziga xos bir-biridan farqlanuvchi, ya'ni birinchi holda insonparvar va tarbiyaviy ishga qaratilgan ijobiy yo'nalishga va keyingisida sportni tijoratlashtirish yo'lida rekord natijalarni qo'lga kiritish uchun turli giyohvand va tibbiy preparatlarni qo'llagan holda inson mohiyatini yemirishga, zulm va adovat tarqatishga qaratilgan salbiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Sportni madaniy-ijtimoiy hodisa sifatida o'rganar ekanmiz, sportda ham xuddi insonning boshqa faoliyat sohalarida bo'lgani kabi, yuksak va olijanob maqsadlar hamda g'ayri, xudbinlarcha va past tamoyillar ham hamisha bo'lgan, bor va bundan keyin ham bo'ladi. Ana shu ma'noda jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi fan falsafiy antropologiya bilan birlashib ketadi. Chunki, bu yo'nalish asoschisi M.Shelerning so'zlari bilan aytganda, "falsafiy antropologiya inson mohiyati to'g'risidagi va insonning mohiyatan tuzilishi, uning tabiat saltanatiga (noorganik dunyoga, o'simliklarga, hayvonotga) munosabati, uning metafizik jihatdan mohiyatan yaratilishi va uning dunyodagi jismoniy, aqliy va ruhiy javhari, uni harakatga keltiruvchi va u

<sup>3</sup> Yaqubov F.M. Sport qadriyatlari – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur tarzini rivojlantirish uslubi sifatida. "ilm sarchashmalari" ilmiy metodik jurnali, 2020.

harakatga keltiruvchi kuchlar va imkoniyatlar, uning biologik, psixik, ruhiy-tarixiy va ijtimoiy kamolotining asosiy yo'nalishlari, uning muhim imkoniyatlari va ularni ro'yobga chiqarish to'g'risidagi fundamental fandi<sup>4</sup>. Zamonaviy jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotidagi ikki qarama-qarshi tamoyillarni ajratish maqsadga muvofiq ekanligidan kelib chiqib, sport falsafasini ikki tabaqaga sport g'oyasi va sport faoliyatiga bo'lib tadqiq etish tavsiya etiladi. Sportni madaniyatning bir ko'rinishi sifatida sport g'oyasi va sport faoliyatiga ajratilishi sportga oid murakkab tarixiy hodisalarni tushuntirib, muayyan davr oraliqlarida halokatga mahkum bo'lgan, shu jumladan turli ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy jihatdan ta'qib ostiga tushib qolgan xalqlarning mushkulotlarini hal qilib bergan bo'lardi. Har qanday g'oya, u qanchalik jarangdor va jozibador bo'lmasin, turmushga o'z-o'zidan, og'riqlarsiz singib ketmaydi, balki aksincha, ro'yobga chiqishi uchun insonning va bashariyatning mislsiz shijoatini va hatti-harakatini talab etadi.

Barcha sohadagi faoliyat kabi sport faoliyati ham insonning yuksalish yo'lidagi nafaqat gullar bilan, balki chaqir tikanaklar bilan ham o'ralgan mashaqqatli, baland-past so'qmoqli yo'llaridan iborat. Olimp cho'qqisiga intilish ham qiyinchiliklar va yo'qotishlarni matonat bilan yengib o'tishni talab qiladi. Faylasuflarning bu sohaga bir jihatdan ijobiy yondashuvlari ana shu sabab bilan ifodalansa, ikkinchi tomondan salbiy qarashlar ham xuddi shu boisdan kelib chiqadi.

Sport faoliyati harakat orqali amalga oshiriladigan faoliyatning oliy shakli bo'lib, unda insonni jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda jismoniy va ruhiy jihatdan kamol toptiruvchi faoliyatining shijoatli jarayoni ifoda topadi. Sport faoliyati xususiy va tashkiliy pedagogik faoliyat kabi ikki qismga ajratiladi. Xususiy sport faoliyatiga sportchining musobaqalarga faol tayyorgarligi tashkiliy pedagogik faoliyatga esa, sport ishi tashkilotchilari, rahbarlari, ustozlar, hakamlar, ilmiy xodimlar, axborot beruvchilar, OAV xodimlarining faoliyati kiradi.

Sport falsafasi deganda, kishilik jamiyatining har bir bosqichida sport g'oyasining sport faoliyatga yoki sport hayotiga qanchalik tatbiq etilishi tushuniladi. Sport hayotining haqiqiy holati sport to'g'risidagi maxsus fanlar tomonidan o'rganiladi, falsafa esa, tabiiyki, yuksak g'oyalari, ya'ni hayotning nazariy asoslari, shu jumladan sport va jismoniy tarbiya g'oyalari ustida ish olib boradi. Shunday ekan, sport g'oyasi bilimning fanlararo toifasi bo'lib, aynan sport falsafasining o'zidir.

Sport g'oyasi bu sport ideallari bo'lib, ular sportchilarning amaliy faoliyatida yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi. Bu muayyan tarixiy-ijtimoiy tuzumning dolzarb ijtimoiy muammolarining sport orqali yechilishi yuzasidan manfaatdorligidir. Sport g'oyasi shuningdek, o'sha muayyan jamiyatda jismoniy tarbiya nazariyasini ishlab

<sup>4</sup> Шелер. Положение человека 14 космосе. Проблема человека в западной философии. М. Наука. 1998.-33 с.



chiqish uchun dunyoqarashga hamda uslubiyatga doir ijtimoiy-falsafiy tamoyillarning ibtidosi va intihosi xossalariga ega bo'ladi.

Shuningdek, sport g'oyasi jismoniy tarbiya nazariyasidan ko'zda tutilgan maqsadga ko'ra turli yo'nalishlarga ajraladi, masalan, yuksak natijalar sporti-insonning shaxsiy zohiriy va botiniy, ochiq va yashirin imkoniyatlarini ishga solishni, olimpiya sporti esa-e'lon qilingan olimpiya xartiyasi asosida insonning oliy insonparvarlik, milliy-vatanparvarlik tuyg'ularini kashf etishni, professional sport-jamiyatning tomoshabop sportga bo'lgan ehtiyojini qondirishni va sportchini tegishli ravishda rag'batlantirilishini, ommaviy sport-millatning sog'lomlashuvini, nogironlar sporti-ularni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qo'llab-quvvatlanishini, bolalar va o'smirlar sporti-tarbiyaviy maqsadlarni, tiklovchi sport-keksa yoshli aholining salomatligini saqlash va umrini uzaytirishni ko'zda tutadi. Bu haqda A. Shopengauer o'zining "Hayotiy donishmandlik aforizmlari"<sup>5</sup> nomli kitobida shunday yozadi: bizning baxtimizning 10 dan 9 qismi sog'ligimiz bilan bog'liq. Sog'liq bo'lsa hamma narsa bo'ladi. Usiz hech qanday katta farovonlik ham rohat bag'ishlamaydi. Hatto aql sifati ham kasallik holati natijasida kamayadi".<sup>5</sup> Faylasuf ta'kidlagan baxtga, sog'liqqa erishish uchun albatta jismoniy mashqlarni bajarib yurish maqsadga muvofiqdir. O'z tabiatiga ko'ra sport insonparvardir. U shaxsning organizmi va ruhiyatining o'rganilmagan imkoniyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatiga oid ilmiy adabiyotlarda, sport, undan ko'zda tutilgan ijtimoiy muhim maqsadlarga muvofiq ravishda, turli-tuman yo'nalishlar, turlar, tasniflar, jinslarga ajratiladi. Bularning hammasi sport falsafasi doirasida sport, jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiya nazariyasining toifalovchi-ta'riflovchi tizimini ishlab chiqish, yangilash va takomillashtirish masalasini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, fanlararo yangi ilm sohasi sport falsafasini shakllantirish uchun barcha amaliy va nazariy asoslar mavjud. Faqat vujudga kelgan ilmiy an'analarni davom ettirgan holda sportning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi mohiyatini tadqiq etish, uning ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyatini va o'rnini aniqlab berish talab etiladi. Bunday tadqiqotlarni muvaffaqiyatli hamda sifatli bo'lishi uchun fanlararo ilmiy izlanishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>5</sup> Шопенгауэр А. Афоризмы житейской мудрости.// Человек.-М: Наука, 1995. 281 с.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar Xalq so‘zi.
2. Лубышева Л.И. Социальная роль спорта в развитии общества и социализации личности// *lid sported*, 2019.c.1.
3. Yaqubov F.M. Sport qadriyatlari – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur tarzini rivojlantirish uslubi sifatida. “ilm sarchashmalari” ilmiy metodik jurnali, 2020.
4. Шелер. Положение человека 14 космосе. Проблема человека в западной философии. М. Наука. 1998.-33 с.
5. Шопенгауэр А. Афоризмы житейской мудрости.// Человек.-М: Наука, 1995. 281 с.
6. Маманов, Ж. А., & Розиков, Ж. М. (2021). Миллий менталитетнинг ёшлар маданиятига таъсири. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 170-178.
7. Маманов, Ж. А. (2018). Ёшлар маънавий маданиятига таъдид ёки мессонерликнинг салбий оқибатлари. *ЎЗМУ хабарномаси*, 169.
8. Маманов, Ж. А. (2018). МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ТАКОМИЛИДА СПОРТ ВА АХЛОКИЙ МАДАНИЯТНИ УЙФУНЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ. *Fan-Sportga*, (3), 74-78.
9. Маманов, Ж. А., & Хушвақтов, З. Р. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ (МЕХАНИЗМИ) ВОСИТАСИДА ЁШЛАР МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 9-13.
10. Маманов, Ж. А. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 3203.
11. Маманов, Ж., & Турғунов, Т. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ АСОСИДА ЁШЛАР МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 520-528.